



## **"NAVOIY" ERKIN IQTISODIY ZONASI FAOLIYATINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

### **DEVELOPMENT PROSPECTS OF THE NAVOI FREE ECONOMIC ZONE**

<sup>1</sup>**Kuziev Ravshan  
Ramazanovich**

<sup>1</sup>*PhD, mustaqil tadqiqotchi*

#### **Annotatsiya Annotation**

**Uzb.** - Ushbu ilmiy maqolada Navoiy erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va investitsion jozibadorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning eksport salohiyatini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, erkin iqtisodiy zona faoliyatida mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Eng.** - This scientific article analyzes the economic potential, infrastructure capabilities, and investment attractiveness of the Navoi Free Economic Zone. The study highlights prospects for increasing the region's export potential, attracting foreign investments, introducing new technologies, and developing the production of high value-added products. In addition, the article identifies existing challenges in the operation of the free economic zone, proposes solutions to address them, and develops scientifically grounded recommendations for applying modern management mechanisms.

#### **Kalit so'zlar: Keywords:**

❖ *erkin iqtisodiy zona, xorijiy investitsiya, eksport salohiyati, hududiy rivojlanish, texnologik modernizatsiya, investitsiya muhiti.*  
❖ *free economic zone, foreign investment, export potential, regional development, technological modernization, investment climate.*

#### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi ilk bor 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun asosida me'yoriy jihatdan mustahkamlandi. Ushbu qonun erkin iqtisodiy zonalarini "hududiy chegaralangan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya modeli" sifatida talqin etadi. Unda asosiy e'tibor iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi bilan

mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar va ularning analogi hisoblangan kichik sanoat zonalarini barpo etish jarayoni sezilarli darajada jadallashdi. Ayniqsa, mazkur zonalarining tashkil etilishi davlat tomonidan maqsadli hududiy industrial siyosatni olib borish, kapital va texnologiya oqimini strategik markazlarga yo'naltirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bunday zonalarining huquqiy-institutsional zaminini yaratish orqali O'zbekiston hududlarida yuqori investitsiyaviy jozibadorlik va biznes yuritish qulayligi darajasi ortib bordi. Bu esa milliy iqtisodiyotda

zamonaviy raqobatbardosh sanoat klasterlarini shakllantirish uchun barqaror institutsional sharoitni ta'minladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududlar global miqyosda iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb etish va hududiy rivojlanishni tezlashtirishning samarali mexanizmi sifatida keng o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda (F. Farole, T. Akinci, World Bank, 2011; UNCTAD, 2019; OECD, 2020) EIZlar "iqtisodiy katalizator" sifatida ta'riflanib, ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan huquqiy-institutsional muhit, infratuzilma sifati va investorlar uchun yaratilgan fiskal rag'batlar tizimiga bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Farole va Akinci (2011) tadqiqotlarida, Xitoy, Janubiy Koreya va BAA tajribasi asosida EIZlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish, eksport hajmini oshirish hamda texnologik transferni jadallashtirishda asosiy platforma ekanligi [1] ilmiy asoslangan.

MDH mamlakatlari tajribasida (S. Volkov, 2018; A. Smirnov, 2021) EIZlar ko'proq sanoatni modernizatsiya qilish va hududiy investitsiya jozibadorligini oshirish vositasi sifatida qoraladi. Rossiya va Qozog'istonda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli EIZ faoliyatining kaliti — aniq ixtisoslashuv, infratuzilma tayyorligi va soliq imtiyozlarining barqarorligi bilan izohlanadi [2].

Mahalliy olimlardan H.A. Xojimatov (2019) EIZlarda soliq va bojxona preferensiyalari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi [3]. U.R. Rahmonberdiyev (2020) esa EIZdagi imtiyozlar xorijiy sarmoyani jalb qilishda samarali bo'lsa-da, uzoq muddatli barqarorlik uchun yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish zarurligini qayd etadi [4].

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida (UNIDO, 2022; OECD Investment Policy Reviews, World Bank, 2023) O'zbekiston EIZlari xorijiy investitsiya ulushining o'sishi, eksportning diversifikatsiyalanishi va ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyasida Markaziy Osiyo miqyosida yetakchi bo'lib borayotgani qayd etiladi [5, 6, 7]. Shu bilan birga, tahlillarda ayrim hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi va kadrlar salohiyatining cheklanganligi kabi muammolar saqlanib qolayotgani ham ko'rsatilgan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili EIZlar bo'yicha ilmiy qarashlarning uch asosiy yo'nalishda jamlanganini ko'rsatadi:

1. Iqtisodiy o'sish drayveri sifatida EIZlar – investitsiya oqimlari, eksport hajmi va texnologik transferni oshirishga xizmat qiluvchi platforma.

2. Hududiy rivojlanish vositasi sifatida EIZlar – hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, sanoatni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda strategik ahamiyat.

3. Institutsional va fiskal mexanizmlar – EIZ samaradorligi huquqiy barqarorlik, soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek, infratuzilma va kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqligi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

"Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi — xorijiy kapital oqimini jalb qilish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish va bojxona preferensiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi strategik sanoat platformasidir. Mazkur zonada iqtisodiy faoliyat yuritayotgan subyektlarga bir qator fiskal va bojxona yengilliklari taqdim etilmoqda. Jumladan, "Navoiy" EIZ rezidentlari tomonidan eksport maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun zarur



bo'lgan butlovchi qismlar va komponentlar bojxona to'lovlaridan to'liq ozod etiladi.

Agar ishlab chiqarish O'zbekiston ichki bozoriga yo'naltirilgan bo'lsa, xorijdan olib kirilayotgan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun amaldagi stavkalarining faqat 50 foizi miqdorida bojxona to'lovlari undiriladi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlarni kechiktirib to'lash muddati 180 kungacha uzaytirilgan bo'lib, bu korxonalarning aylanma mablag'laridan samarali foydalanishiga xizmat qilmoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, "Navoiy" EIZ hududida 54 ta xo'jalik yurituvchi subyekt negizida 71 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 402,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu mablag'ning 122,0 mln dollari bevosita xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Loyiha doirasida 4 560 ta yangi ish o'rni yaratilgan va

mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi oshirilgan.

2024-yil natijalariga ko'ra, "Navoiy" EIZda joylashgan korxonalar tomonidan umumiy qiymati 5 040,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 40,3 foizlik real o'sishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahsulot eksporti hajmi 74,6 mln AQSh dollariga yetib, avvalgi yilga nisbatan 27 foiz o'sish ta'minlandi.

Mazkur natijalar "Navoiy" EIZning investitsiyaviy jozibadorligi, eksport salohiyati va hududiy iqtisodiy transformatsiyadagi o'rni sezilarli darajada kuchayotganidan dalolat beradi. Ushbu zona ilg'or texnologiyalarni joriy etish, fiskal rag'batlar orqali kapital aylanishini tezlashtirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni klaster shaklida tashkil etish bo'yicha muvaffaqiyatli model sifatida e'tirof etilmoqda.

#### 1-jadval

#### "Navoiy" EIZda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy investitsiya ko'rsatkichlari (2024-yil holatiga ko'ra) [8]

| <i>EIZ ishtirokchi<br/>subyektlar soni</i> | <i>Jami investitsiya<br/>miqdori (mln. AQSh<br/>doll)</i> | <i>shundan</i>                    |                                   |                                                             | <i>Ish<br/>o'rni</i> |
|--------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------------------------|----------------------|
|                                            |                                                           | <i>O'z mablag'i<br/>hisobidan</i> | <i>Bank krediti<br/>hisobidan</i> | <i>To'gridan-to'g'ri xorijiy<br/>investitsiya hisobidan</i> |                      |
| 31                                         | 326,4                                                     | 123,1                             | 121,8                             | 81,5                                                        | 2670                 |

2024-yilda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida PF-5719-son Farmonga muvofiq 31 ta loyiha amalga oshirilib, jami 326,4 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Ushbu ko'rsatkich so'nggi yillarda ushbu hududda investitsiya muhiti barqaror va jozibador ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning 37,7 foizi to'g'ridan-to'g'ri loyiha tashabbuskorlarining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu ichki resurslarni safarbar qilish darajasining yuqoriligini va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini anglatadi. Shu bilan birga, 37,3 foiz investitsiyalar bank kreditlari hisobidan, 25 foizi esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilgan. Bu

esa loyihalarning moliyalashtirish manbalaridagi diversifikatsiyani ko'rsatadi va tashqi sarmoyachilarning ham hududdagi loyihalarga ishonch bildirishi natijasidir.

Investitsiyalarning tarkibiy tahlilida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining 25 foizni tashkil etishi — bu "Navoiy" EIZning xalqaro investitsion muhitda ham faol ishtirokchiga aylanayotganini anglatadi. Bu holat, jahon bozoridagi raqobat sharoitida mazkur hududning tashqi sarmoya uchun munosib platforma ekanligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan qaralganda, 2024-yilda amalga oshirilgan ushbu loyihalar natijasida 2 670 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Bu har 1 million dollar investitsiya hisobiga o'rtacha 8 ta ish o'rni yaratilganini anglatadi.

Bu esa, joriy loyihalarning ijtimoiy samaradorligi yuqori ekanini, xususan ish bilan bandlikka qo'shayotgan hissasini anglatadi.

Umuman olganda, "Navoiy" EIZdagi investitsiya faoliyati tarkibiy jihatdan barqaror va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatidan yuqori baholanishi mumkin. Xorijiy sarmoyalarning ko'payishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va mehnat bozoridagi bandlik darajasining oshishi hududning iqtisodiy salohiyati izchil oshib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kelgusida xorijiy investitsiyalar ulushini 30-35 foizgacha oshirish, bank kreditlarini samarali jalb qilish mexanizmini takomillashtirish va mahalliy investorlarning loyiha boshlang'ich bosqichidagi ishtirokini rag'batlantirish tavsiya etiladi. Bu "Navoiy" EIZning investitsiyaviy raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. 2024-yilda Navoiy viloyatida 113 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 765 million AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi orqali 8 650 ta doimiy ish o'rni yaratilgani e'tiborga molik bo'lib, bu hududdagi investitsiya faolligining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya manbalari strukturasi turli manbalar hissasiga tayanayotganini ko'rsatadi. Jumladan, investitsiyalarning 35,3 foizi yoki 270 million dollari mahalliy korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga, 27,1 foizi yoki 207 million dollari tijorat banklari kreditlari hisobidan, 32,4 foizi yoki 248 million dollari esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan. Qolgan qismini davlat qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari (5,2 foiz) tashkil etgan. Bundan, moliyalashtirish manbalaridagi diversifikatsiya, ya'ni bir necha turli manbalarga tayanish tendensiyasi shakllanayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Investitsiya loyihalarining amalga oshish holatlari tahlil qilinganda, ularning uchta toifaga bo'linayotgani kuzatiladi: ishga tushgan, amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar. 44 ta ishga tushgan loyihalarning umumiy qiymati 219 million dollarni tashkil etib, ular orqali 2 625 ta ish o'rni yaratilgan. Ushbu loyihalarda asosan mahalliy mablag'lar va bank kreditlaridan foydalanilgani qayd etildi. 68 ta amalga oshirilayotgan loyihalar esa 550 million dollarlik sarmoya bilan ta'minlangan bo'lib, ularning moliyalashtirish manbalarida xorijiy sarmoyalar va bank kreditlarining ulushi yuqori. Bunday loyihalar orqali 6 000 ga yaqin ish o'rni tashkil etilgani, mazkur yo'nalishda investitsiya samaradorligining yuqori ekanini anglatadi.

Ayniqsa, istiqbolli loyihalar alohida e'tiborga molik. Ularning umumiy qiymati 296 million dollarni tashkil etib, shundan 257,1 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat xorijiy investorlarning hududdagi kelgusi iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Shu bilan birga, bunday loyihalar orqali 2 025 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgani, ularning ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab beradi.

Hududiy kesimda tahlil qilinganda, Karmana EIZ hududi investitsiya faolligi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Bu yerda jami 56 ta loyiha amalga oshirilib, 335 million dollarlik sarmoya jalb etilgan va 4 000 ta ish o'rni yaratilgan. Shuningdek, Navoiy EIZ hududida 125,7 million dollarlik 31 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ularning 1 523 ish o'rni yaratish imkoniyati mavjud. Boshqa hududlarda amalga oshirilayotgan 29 ta loyiha esa 308,3 million dollarlik sarmoya bilan ta'minlangan va 3 102 ta ish o'rniga ega bo'lgan. Boshqa hududlarda loyihalarning moliyaviy salohiyati yuqori, ammo ularning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyaga bog'liqligi kamroq.

Ilmiy jihatdan xulosa qilinadigan bo'lsa, Navoiy viloyatidagi investitsiya muhiti



diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalari, xorijiy sarmoyalar jalbi va ish o'rinlari yaratish darajasiga ko'ra, strategik iqtisodiy o'sish markazlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Loyihalarning yuqori texnologiyali va eksportbop yo'nalishlarga qaratilayotgani ularning ustuvorlik darajasini oshirmoqda. Shu boisdan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida regulyatorlar tomonidan institutsional kafolatlar va moliyaviy mexanizmlar (subsidiya, kafolatli kredit, soliq imtiyozlari)ni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Loyihalarni moliyalashtirish manbalari tahlil qilinganda, 268,5 mln. dollar yoki 86,6 foiz qismni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich hududning xalqaro investitsiya muhitidagi mavqei barqaror ekanini va xorijiy investorlar ishonchining yuqoriligini ko'rsatadi. Qolaversa, 21,3 mln. dollar mahalliy korxonalarining o'z mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, bu mahalliy tadbirkorlik subyektlarining ham faol ishtirokini namoyon etadi.

Hududlar kesimidagi tahlilga ko'ra, Karmana tumani 18 ta loyiha va 110,7 mln. dollarlik investitsiya hajmi bilan yetakchi pozitsiyani egallamoqda. Ushbu loyihalar orqali 1020 ta ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Loyihalarning moliyalashtirilishida xorijiy investitsiyalar ulushi katta bo'lib, bu hududning strategik investitsion jozibadorligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Zarafshon shahrida yagona loyiha joylashgan bo'lib, uning qiymati 144,5 mln. dollarni tashkil etadi va bu mablag'ning to'liq qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hissasiga to'g'ri keladi. Bu loyiha orqali 370 ta ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Navbahor tumanidagi ikkita loyiha ham asosan xorijiy kapital hissasiga amalga oshiriladi va 495 ta ish o'rni tashkil etiladi.

Qolgan tumanlar — xususan, Qiziltepa, Konemix, Uchquduq, Xatirchi, Tomdi va Nurota tumanlarida kamroq sonida loyihalar mavjud bo'lib, ularning umumiy investitsiya hajmi

nisbatan kichik. Ammo bu loyihalarning har biri hududning iqtisodiy faolligini oshirishda va ish bilan ta'minlashni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, oxirgi yillarda Navoiy viloyatida amalga oshiriladigan istiqbolli investitsiya loyihalari hajmi va tuzilishi hududda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ish o'rinlarini ko'paytirish va xorijiy kapitalni jalb qilish borasida muayyan natijalar berishi kutilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy moliyalashtirish va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, hududlararo investitsion muvozanatni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Navoiy viloyatida, xususan "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida amalga oshirilayotgan investitsion faoliyat mamlakat miqyosidagi hududiy rivojlanish strategiyasining muhim qismiga aylandi. Viloyatdagi investitsiya dasturlari doirasida umumiy qiymati 1,1 milliard AQSh dollarini tashkil etuvchi 7656 ta investitsion loyiha amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bu ko'rsatkich viloyatning iqtisodiy salohiyati oshib borayotganini va "Navoiy" EIZning jozibadorlik darajasi mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

2024-yilda amalga oshirilgan loyihalar moliyalashtirish manbalari bo'yicha diversifikatsiyalashgan bo'lib, ularda ham mahalliy, ham xorijiy sarmoyadorlar ishtirok etmoqda. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasi yuqori bo'lgan loyihalar soni ortgani kuzatildi. Bu esa EIZning xalqaro ishonch darajasi oshganini ko'rsatadi.

Navoiy viloyati va "Navoiy" EIZda amalga oshirilayotgan loyihalarning tarmoqlararo tarkibi diversifikatsiyalashgan. Jumladan, 2024-yilda energetika, kimyo, qayta ishlash, qurilish materiallari va logistika sohaslarida amalga oshirilayotgan loyihalar viloyat iqtisodiyotining tarmoqlar kesimida muvozanatli rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Ahamiyatli yo'nalishlardan biri bu — energetika sohasidir. Xususan, Nurota

tumanida 300 megavatt quvvatga ega bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish loyihasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar orqali amalga oshirilmoqda va 390 million dollarlik investitsiyani o'z ichiga olgan. Bu loyiha nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki barqaror energiya ta'minoti va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan loyihalar nafaqat sarmoya hajmi, balki ijtimoiy samaradorligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya'ni, ko'plab loyihalarda aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratildi, shuningdek, mahalliy resurslardan keng foydalanish hisobiga iqtisodiy faollik oshdi. Ayrim qayta ishlash va qurilish materiallari sohalaridagi loyihalarda ish o'rinlari yaratish samaradorligi yuqori bo'ldi.

Ayniqsa, mahalliy xomashyoni qayta ishlashga qaratilgan loyihalar kam sarmoya evaziga ko'proq ish o'rinlari yaratayotgani bilan ajralib turibdi. Bu holat mahalliy resurslarni iqtisodiy faollikka jalb qilish va aholi bandligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'ta muhim hisoblanadi.

Oxirgi yillar tahlillari shuni ko'rsatadiki, "Navoiy" EIZ xorijiy sarmoyadorlar uchun tobora ko'proq jozibador bo'lib bormoqda. Xalqaro investorlar asosan yuqori texnologiyali, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan loyihalarga qiziqish bildirmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston hukumati tomonidan yaratilayotgan kafolatlar, qulay shart-sharoitlar va erkin iqtisodiy zonlardagi soliq imtiyozlari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan xorijiy sarmoya hissasi yuqori bo'lgan loyihalarning joriy etilishi, ilg'or texnologiyalarning kelib chiqishi va ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishiga olib kelmoqda. Bu esa mahalliy kadrlar malakasini oshirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash imkonini beradi.

Navoiy viloyatidagi "Navoiy" EIZning rivojlanish yo'nalishlari va investitsiya muhiti yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- ❖ EIZdagi loyihalarning tarmoqlar kesimida diversifikatsiyalangan iqtisodiy barqarorlik va muvozanatni ta'minlamoqda.

- ❖ Xorijiy sarmoyalarning o'sishi EIZning xalqaro darajadagi nufuzi va ishonch darajasi oshib borayotganini tasdiqlaydi.

- ❖ Energetika va "yashil iqtisodiyot" sohasidagi loyihalar kelgusida barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

- ❖ Mahalliy resurslar asosidagi loyihalar ijtimoiy samaradorlikni ta'minlashda va aholi bandligini oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tavsiya sifatida esa, mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kadrlar tayyorlashni innovatsion tarzda yo'lga qo'yish, yangi loyihalarni tanlashda ijtimoiy va ekologik mezonlarni inobatga olish hamda tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish zarur.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining joriy etilishi va ularning izchil rivojlanib borayotgani milliy iqtisodiyotning innovatsion modernizatsiyasi, hududiy tafovutlarni kamaytirish, sanoatlashuv darajasini oshirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Respublikadagi mavjud EIZlar har biri o'ziga xos resurs salohiyati, ixtisoslashuvi va hududiy ustuvorlikka asoslangan ishlab chiqarish markazlariga aylantirilmoqda.

Birinchidan, EIZlar doirasida strategik sanoat yo'nalishlari bo'yicha (masalan, to'qimachilik, elektrotexnika, mashinasozlik, oziq-ovqat, kimyo, farmatsevtika, baliqchilik va issiqxona texnologiyalari) yuqori qo'shilgan qiymatga ega, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan zamonaviy klasterlar

shakllantirilmoqda. Bu esa, O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi savdo salohiyatini oshirish, importni bosqichma-bosqich qisqartirish va iqtisodiy suverenitetni mustahkamlash imkonini bermiqda.

Ikkinchidan, EIZlar hududlarida ishlab chiqarish, logistika, transport-kommunikatsiya, energiya va ijtimoiy infratuzilma tizimlarining rivojlanishi "kompleks hududiy sinergetika" tamoyili asosida shakllantirilmoqda. Natijada, nafaqat yirik investorlar uchun, balki kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun ham qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Uchinchidan, EIZlar faoliyatida ilm-fan va ta'lim integratsiyasi muhim o'rin egallab bormoqda. Ayni paytda EIZ hududlarida kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot va sinov laboratoriyalari bilan ishlab

chiqarish o'rtasida sinergiya yaratilayotgani, innovatsion g'oyalar asosida texnologik transfer jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, fiskal va tarif imtiyozlari (yagona soliq to'lovidan vaqtincha ozod qilish, bojxona stavkalarining 50 foiz gacha pasaytirilgan tartibda kechiktirilgan to'lovlari, uzoq muddatli ijara shartlari va boshqalar) investitsiya muhiti raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda.

Beshinchidan, alohida ixtisoslashtirilgan zonalarining ("Farm-zonalar", "Agro-zonalar", "Baliqchilik zonasi") tashkil etilishi – vertikal kooperatsiyani chuqurlashtirish va hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish orqali ichki bozorni to'ldirish, aholi bandligini ta'minlash hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlashni maqsad qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xojimatov H.A. *Erkin iqtisodiy zonalarida soliq va bojxona preferensiyalarining iqtisodiy samaradorligi. Soliq va moliya*, 2019, №3, 45–52.
2. Rahmonberdiyev U.R. *O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlanish yo'nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 2020, №5, 33–40.
3. Farole T., Akinci G. (eds.). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions*. Washington, DC: The World Bank, 2011.
4. OECD. *OECD Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2020*. Paris: OECD Publishing, 2020.
5. UNIDO. *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. Vienna: UNIDO, 2022.
6. UNCTAD. *World Investment Report 2019: Special Economic Zones*. New York and Geneva: United Nations, 2019.
7. Волков С. Свободные экономические зоны: этапы развития и стратегические перспективы. *Российский экономический журнал*, 2018, № 4, с. 21–30.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (<https://www.stat.uz>).